

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 12-fevral № 2 (1563)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

JAVOBGARLIK MUQARRAR

Korrupsiya har qanday sohada, ayniqsa, yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida katta xavf hisoblanadi.

2 ➔

BARAKA VA MAG'FIRAT OYI

Ramazon islom olamida eng ulug' va fazilatli oy bo'lib, mehr-oqibat, sabr-toqat, saxovat va poklanish timsolidir.

3 ➔

MAS'ULIYATSIZLIK OQIBATI

Vaqtinchalik manfaat deb haqiqatni ko'zdan qochirish javobgarlik va pushaymonlikka olib keladi.

4 ➔

KATTA MARRALAR SARI

USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

Sanoat taraqqiyoti mamlakat iqtisodiy barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, respublikada metallurgiya sohasini rivojlantirish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini to'liq ishga solish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ayni yo'nalishda "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati jamoasi joriy yilda katta marralarni ko'zlab, fidokorona mehnat qilmoqda.

Joriy yilda kombinatda 457 900 tonna po'lat eritilishi, 1 060 000 tonna prokat mahsulot-

lari ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar korxona jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarning naqadar mas'uliyatli ekanini yaqqol namoyon etadi.

Prokat mahsulotlarining asosiy qismi — 640 000 tonnasi Navli prokatlash bo'linmasida ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan. Xususan, 634 000 tonna navli va shaklli prokat, 2 400 tonna katanka hamda 3 600 tonna po'lat sim tayyorlanishi rejalashtirilgan.

Zoldir prokatlash bo'linmasida esa 270 ming tonna maydalovchi zoldirlar ishlab chiqarish belgilangan. Shuningdek, Quyuv-prokatlash majmuasida 150 ming tonna po'lat list o'ramlari tayyorlanishi ko'zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, kombinatda qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarish ham rejaga kiritilgan bo'lib, joriy yilda 6 797 tonna ferrosilitsiy FS45, 2 400 tonna ferrosilitsiy FS65 hamda 8 601 tonna ferrosilit-



siyomarganets ishlab chiqarilishi belgilangan.

Belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash maqsadida kombinat boshqaruvi buyrug'i bilan ishlab chiqarish hajmlari hamda rejalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar tasdiqlandi.

"O'zmetkombinat" AJ jamoasi oldiga qo'yilgan keng ko'lamli rejalar korxonaning ishlab chiqarishini yanada oshirishga xizmat qiladi. Belgilangan marralarga erishish esa nafaqat korxona jamoasi, balki mamlakat sanoati rivojiga munosib hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz.

Bahodir RAVSHANOV.



TABIAT NE'MATLARIGA EHTIYOTKORONA MUNOSABATDA BO'LAYLIK!

Alohida e'tibor qaratilmoqda

Tabiatni muhofaza qilish — atrof-muhit barqarorligini saqlash, ekologik ofatlarning oldini olish va kelajak avlod uchun sog'lom muhit qoldirish barcha fuqarolar, korxonalar va tashkilotlarning konstitutsiyaviy burchidir.

Har bir korxona, tashkilot, shaxs tabiiy resurslardan oqilona foydalanishi, o'simlik va hayvonot dunyosini asrashi, shuningdek, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatuvchi faoliyatni to'xtatishi shart.

Respublikamizda, jumladan kombinatimizda atrof-muhit musaffoligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratil-

BURCHIMIZNI UNUTMAYLIK!



moqda. Atmosferaga zararli moddalar chiqarilishini, ishlab chiqarish oqava suvlarining tabiiy suv havzalariga tashlanishini yanada kamaytirish, yashil maydonlarni asrash, yer resurslarini muhofaza qilish va kombinatda qulay ekologik muhitni yaratish maqsadida har yili "Atmosfera havosi, suv obyektlarini, o'simlik dunyosi va yer resurslarini muhofaza qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Boshqaruv buyrug'i chiqarildi.

(Davomi 2-sahifada).

KORRUPSIYAGA QARSHI BIRGALIKDA KURASHAMIZ!

Korrupsiya har qanday sohada, ayniqsa, yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyatida katta xavf hisoblanadi. U moliyaviy yo'qotishlarga, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga va mehnat jamoasida ishonch muhitining susayishiga olib keladi.

Metallurgiya sohasi mam-lakatimiz iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanib, ushbu sohada samarali ishlab chiqarish, raqobatbardosh mahsulot yaratish va jamoaning mehnat unumdorligini oshirish avvalo halollik, ochiqlik va qonun ustuvorligiga asoslangan boshqaruv tizimini talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurash har bir korxona, jumladan metallurgiya kombinatlar uchun ham ustuvor vazifadir.

2026-yil 27-yanvar kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida davlat va jamiyat xavfsizligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid qilayotgan jinoyatchiliklarga qarshi ta'sirchan choralarni belgilash yuzasidan videoselektor yig'ili-shi o'tkazildi. Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari korrupsiyaga nisbatan murosasiz pozitsiyani ochiq va qat'iy ifoda etdi. Prezidentimiz videoselektor

davomida shunday dedi:

“Bilib qo'yinglar, davlatning har bir so'mi bo'yicha ta'sirchan nazorat o'rnatiladi. Javobgarlik muqarrar, jazo qattiq bo'ladi”.

Bu so'zlar har bir rahbar va har bir xodim uchun ogohlantiruvchi va mas'uliyatni oshiruvchi da'vatdir.

Yig'ilishda ta'kidlanganidek, yaqin vaqt ichida Prezident Administratsiyasi va barcha davlat idoralarida komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi joriy etildi. Bu tizim davlat mablag'laridan foydalanishda ochiqlikni ta'minlash, manfaatlar to'qnashuvini barvaqt aniqlash va korrupsiyaviy sxemalarga chek qo'yishga qaratilgan.

Prezidentimiz keltirgan raqamlar esa muammoning naqadar jiddiy ekanini ko'rsatadi. Qisqa muddatda byudjetga tushumlar, talon-toroj va moliyaviy kamchiliklar bo'yicha 53 trillion so'm, tashqi savdo operatsiyalarida esa 8 milliard dollardan ortiq qarzdorlik aniqlangani o'ta ayanchli holat sifatida qayd etildi. Korrupsiyaviy sxemalar natijasida 4,2 trillion so'm zarar yetkazilgan bo'lib, shundan 1,3 trillion so'mi undirildi, 55 nafar shaxs qamoqqa olindi.

Hurmatli metallurglar!

Metallurgiya kombinati jamoasi uchun ushbu videoselektor yig'ili-shi muhim saboq bo'lishi kerak.

Xomashyo xaridi, uskunalar sotib olish, pudrat ishlari, ehtiyot qismlar ta'minoti va kadrlar bilan bog'liq barcha jarayonlarda halollik va oshkoralikka qat'iy amal qilish har birimizdan yuksak mas'uliyat talab etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda har bir ishchi, mutaxassis va muhandisning faol fuqarolik pozitsiyasi muhim. Har qanday qonunbuzarlikka befarq qaramaslik, xizmat vazifasini halol bajarish, korxona manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish sog'lom mehnat muhitining asosiy shartlaridir.

Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar metallurgiya tarmog'ida ham korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarish barqarorligi, investitsiyaviy jozibadorlik va mehnat jamoasida ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Korrupsiyaga murosasiz munosabat bugungi kun talabi va ertangi kunimiz taraqqiyoti kafolatidir.

Aziz ADILOV,
“O'zmetkombinat” AJ
Boshqaruvi raisining
Ishlab chiqarish
bo'yicha o'rinbosari.

Agar korrupsiyaga barham berilmasa, ertangi kunimiz qanday bo'ladi



BURCHIMIZNI UNUTMAYLIK!

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Asosiy vazifalar

2026-yilgi buyruq asosida kombinatda atmosfera havosi, suv obyektlarini, o'simlik dunyosi va yer resurslarini muhofaza qilish bo'yicha 49 ta chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan: atmosfera havosini muhofaza qilish bo'yicha 17 ta, suv havzalarini muhofaza qilish bo'yicha 17 ta, yer resurslari va o'simlik dunyosini muhofaza qilish bo'yicha 15 ta chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Unga asosan atmosfera havosiga tashlanadigan ifloslantiruvchi moddalarning belgilangan me'yoridan oshib ketishining oldini olish, ta'mir ishlarida atmosferaga kam miqdorda siqilgan havoni chiqarish, tabiiy gaz va kislorodning havoga sizib chiqishining oldini olish, atmosfera havosiga kislota va ishqorlarning ta'sirini, zararli gazlar tashlanmalari miqdorini kamaytirish kabi asosiy vazifalar belgilangan.

Maqsad — tabiiy muhit sifatini saqlash

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining tabiatni muhofaza qilishga doir qonunchiligi asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, nafaqat metallurglarning, balki aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish orqali tabiiy muhit sifatini saqlab qolish maqsad qilinadi.

Tabiatni muhofaza qilish bu faqat kombinatning emas, balki har birimizning mas'uliyatimizdir. Qonun talablariga rioya etish, chiqindilarni belgilangan tartibda yo'qotish, tabiat ne'matlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kelajak avlodlar uchun sog'lom muhit qoldirishning yagona yo'lidir.

Diyor ZULFIQOROV.

SADOQAT VA MAS'ULIYAT NAMUNASI

Bugun kombinatimiz haqida so'z ketganda, uning tarixini insonlar taqdirisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayrim hayot yo'llari borki, ular ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanib, butun bir davr ruhini o'zida aks ettiradi. Ana shunday taqdirlardan biri Asad Ergashev nomi bilan bog'liq.

Asad Ergashev 1944-yilda o'rta maktabni tamomlab, 18 yoshida Ikkinchi jahon urushiga safarbar etiladi. Biroq Buxorodan urushga chaqirilgan 170 nafar yoshlar jangohlarga emas, Bekobod shahriga — O'zbekiston metallurgiya zavodi qurilishiga olib kelinadi.

KOMBINAT TARIXIDA QOLGAN NOM

Bu davrda zavodni tezroq qurib ishga tushirish urush maydonlaridagi janglar ahamiyatidan kam emas edi. Yosh Asad shundan boshlab butun hayotini kombinat bilan bog'laydi va uning rivoji yo'lida sidqidildan mehnat qiladi.

Ish faoliyatini qurilish maydonlarida boshlagan Asad Ergashev keyinchalik Marten sexiga o'tdi. Po'lat quyuvchi yordamchisi sifatida u har bir jarayonni diqqat bilan kuzatdi, tajribali ishchilardan o'rgandi va ishlab chiqarish intizomini shaxsiy talab darajasiga ko'tardi. Vaqt o'tishi bilan u ishonchli mutaxassis, keyin esa jamoa

tayanadigan kadrqa aylandi.

1949-yil uning mehnat yo'li-da yangi bosqich bo'ldi. U po'lat quyuv uchastkasida usta sifatida ish boshladi. Bu davrda Asad Ergashevning tashkilotchilik qobiliyati yaqqol namoyon bo'ldi. 1959-yilda unga katta usta lavozimi ishonib topshirildi. Zavod iqtisodiy rivojlanayotgan bir paytda u rahbarlik qilgan uchastka barqaror ishlab, rejalarni o'z vaqtida bajarishi bilan ajralib turardi. Turli millat vakillaridan iborat jamoa yagona maqsad atrofida birlashgan edi. U rahbarlik qilgan jamoa haqiqiy fidoyilik namunasini ko'rsatib mehnat qildi.

Ayniqsa, shu yillarda zavodning iqtisodiy yuksalishida uning hissa-si salmoqli bo'ldi. Katta ustaning ko'p yillik samarali mehnati munosib baholandi. 1966-yil 22-mart kuni Asad Ergashevga yuksak



davlat mukofoti — Mehnat Qahramoni unvoni berildi. Bu mukofot nafaqat uning shaxsiy yutug'i, balki butun kombinat jamoasi mehnatining e'tirofi bo'ldi.

Asad Ergashevning hayot yo'li bugungi yosh avlod uchun haqiqiy ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Uning mehnatsevarligi, kasbiga sadoqati va jamoaga fidoyiligi kombinatimiz tarixi sahifalarida saqlanib qoladi.

Karim ORTIQOV.



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Zahiriddin Muhammad Bobur tarixda ham buyuk davlat arbobi, ham nozik qalbli shoir, adib sifatida yodda qolgan shaxs. Uning hayoti va ijodi nafaqat o'zbek, balki butun jahon madaniy merosida muhim o'rin tutadi. Har yili 14-fevral kuni uning tavallud topgan kuni sifatida eslanadi. Bobur nafaqat qo'mondonlik va hukmdorlik san'atida, balki adabiyot va madaniyat sohasida ham betakror iz qoldirgan.

BUYUK DAVLAT ARBOBI
VA NOZIK QALBLI ADIB

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tavallud topgan. U Amir Temurning nabirasi bo'lib, bolaligidan hokimiyat ishlari, harbiy san'at va ilm-fanga qiziqib o'sgan. Yoshligi og'ir siyosiy kurashlar, yurishlar va mag'lubiyatlar bilan o'tgan bo'lsa-da, Bobur o'z maqsadidan chekinmadi.

Bobur tarixga Hindistonda "Buyuk

Boburiylar" sulolasiga asos solgan hukmdor sifatida kirgan. Bu sulola Hindistonda bir necha asr davomida hukmronlik qildi.

Bobur nafaqat hukmdor, qo'mondon, balki nozikta'b shoir va yozuvchi ham edi. Uning "Boburnoma" asari dunyo adabiyotidagi eng qimmatli xotira asarlaridan biri. Unda Bobur o'z hayoti, yurishlari, zamondoshlari, tabiat va xalqlar haqida jonli, samimiy uslubda hikoya qiladi. Asar tarix, geografiya, etnografiya va adabiyot uchun bebaho manba hisoblanadi.

Bobur o'zbek (chig'atoy) tilida ijod qilgani bilan milliy adabiyot rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning she'rlari, g'azal va ruboiylarida muhabbat, tabiat go'zalligi, hayot haqidagi fikrlar va vatanparvarlik mavzulari aks etgan.

Diyora AHMEDOVA.

MUNOZARA UCHUN MAVZU

PIAR MAQTANCHOQLIKKA
AYLANMAYAPTIMI?

Haqiqiy qadriyatlar laykda emas

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Qilgan ishimiz, borgan joyimiz yoki yegan ovqatimizni boshqalar bilan bo'lishish oddiy holdek qabul qilinmoqda. Ammo bu holat ko'pincha o'zini piar qilish va maqtanchoqlikka aylanib ketyapti. Ayrimlar uchun bu tabiiydek tuyulsa-da, aslida ma'naviy illatlarining kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Insonlar orasida har qanday voqea-hodisani videoga olish, suratga tushirish va uni ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish odat tusini oldi. Ko'pchilik uchun endi asosiy mezon — amalning o'zi emas, balki u qanday ko'ringani va nechta layk olganidir. Bu esa insonni asta-sekin maqtanchoqlikka yetaklaydi.

O'zini ko'z-ko'z qilish illatidir

Islom ta'limotida kamtarlik mo'minning eng go'zal xislatlaridan biri hisoblanadi. Agar piar boshqalarga ibrat bo'lishi yoki xayrli ishlarga undash maqsadida qilinsa ham, unda inson o'zini oldinga chiqarib, maqtanmasligi, o'zini ko'z-ko'z qilmasligi lozim. Chunki maqtanchoqlik Alloh taolo sevmaydigan illatlardandir. Qur'oni Karimda shunday deyiladi:

"...Alloh barcha kibrli va maqtan-

choq kimsalarni sevmaydi."

(Luqmon surasining 18-oyatidan).

Kibr va maqtanchoqlik bir-biriga juda yaqin tushunchalar bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq. Maqtanchoqlikda kibr bor, kibrli odam esa albatta maqtanchoq bo'ladi.

Haqiqiy obro' kamtarlikda

Piarning o'zi islomda mutlaqo harom emas, balki niyatga qarab baholanadi. Agar u jamoani foydali ishlarga jalb qilish, xayrli amallarga undash yoki ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratish maqsadida qilinsa — bu maqbul. Ammo shaxsiy obro'ni oshirish, "men qildim" degan tasavvurni yaratish yoki yaxshilikni brendga aylantirish niyatida bo'lsa, u maqtanchoqlikning zamonaviy ko'rinishiga aylanadi.

Zamonaviy dunyoda piar va maqtanchoqlikni har doim ham aniq ajratib bo'lmaydi. Shuning uchun inson doimo kamtarlikni mezon qilishi lozim. Haqiqiy obro' va qadriyatlar layklar yoki maqtovlarda emas, balki insonning kamtarligida, qilgan amalini yaxshilik bilan ado etishga intilishida namoyon bo'ladi.

Siz nima deysiz, hurmatli metallurglar?

Ismat DIYOROV.

RAMAZON

BARAKA VA MAG'FIROT OYI

Yurtimizga muborak Ramazon oyi kirib kelmoqda. Bu oy islom olamida eng ulug' va fazilatli oy bo'lib, mehr-oqibat, sabr-toqat, saxovat va poklanish timsoli hisoblanadi. Ramazon nafaqat ro'za tutish, balki qalbni poklash, niyatni to'g'rilash va ezgu amallarni ko'paytirish oyidir.

Muqaddas Qur'oni karim aynan Ramazon oyida nozil qilingan. Shu bois bu oyda ibodatlar, xususan ro'za tutish, namoz, Qur'on tilovati va xayr-ehsonlarga alohida ahamiyat beriladi. Ro'za insonni nafsni tiyishga, sabrli bo'lishga, boshqalarning holidan xabar olishga undaydi.

Ramazon oyida jamiyatimizda o'zaro hurmat va birdamlik yanada mustahkamlanadi. Muhtojlarga yordam qo'lini cho'zish, qarindosh-urug' va qo'ni-qo'shnilar holidan xabar olish, mehr-saxovat ko'rsatish kabi ezgu an'analar aynan shu oyda yanada jonlanadi.

Ramazon yurtimizga osoyishtalik, xonadonlarimizga fayz-baraka, qalblarimizga xotirjamlik olib kelsin!

RAMAZON TAQVIMI

(Ro'za tutish vaqtlari Toshkent shahri va viloyati bo'yicha)

Kun	Hafta kuni	Sana	Saharlik	Iftorlik
1	Pa	19-Fevral	05:54	18:05
2	Ju	20-Fevral	05:53	18:07
3	Sh	21-Fevral	05:51	18:08
4	Ya	22-Fevral	05:50	18:09
5	Du	23-Fevral	05:49	18:10
6	Se	24-Fevral	05:47	18:11
7	Ch	25-Fevral	05:46	18:13
8	Pa	26-Fevral	05:44	18:14
9	Ju	27-Fevral	05:43	18:15
10	Sh	28-Fevral	05:41	18:16
11	Ya	1-Mart	05:40	18:17
12	Du	2-Mart	05:38	18:19
13	Se	3-Mart	05:37	18:20
14	Ch	4-Mart	05:35	18:21
15	Pa	5-Mart	05:34	18:22
16	Ju	6-Mart	05:32	18:23
17	Sh	7-Mart	05:31	18:24
18	Ya	8-Mart	05:29	18:25
19	Du	9-Mart	05:27	18:27
20	Se	10-Mart	05:26	18:28
21	Ch	11-Mart	05:24	18:29
22	Pa	12-Mart	05:22	18:30
23	Ju	13-Mart	05:21	18:31
24	Sh	14-Mart	05:19	18:32
25	Ya	15-Mart	05:17	18:33
26	Du	16-Mart	05:15	18:34
27	Se	17-Mart	05:14	18:35
28	Ch	18-Mart	05:12	18:37
29	Pa	19-Mart	05:10	18:38
30	Ju	20-Mart	05:08	18:39

Ro'za tutish (saharlik, og'iz yopish) duosi

Nawaytu an asuvma sovma shahro Ramazona minal fajri ilal mag'ribi, xolisan lillahi ta'ala, Allahu akbar.

Ma'nosi: Ramazon oyining ro'zasini subhdan to kun botguncha tutmoqni niyat qildim. Xolis Alloh uchun. Alloh buyukdir.

Iftorlik (og'iz ochish) duosi

Allohumma laka sumtu va bika amantu va a'layka tavakkaltu va 'ala rizqika aftartu, fag'firli, ya G'offaru, ma qoddamtu va ma axxortu.

Ma'nosi: Ey Alloh, ushbu ro'zamni Sen uchun tutdim va Senga iymon keltirdim va Senga tavakkal qildim va bergan rizqing bilan iftor qildim. Ey mehribonlarning eng mehriboni, mening avvalgi va keyingi gunohlarimni mag'firat qilgil!

IBRAT OLGANGA IBRATDIR DUNYO

KICHIK XATONING KATTA TASHVISHI

Prokat sexida po'lat pechda qizdirilib, vallar orqali cho'zilar va armatura shakliga keltiriladi. Behruz shveller ishlab chiqariladigan liniyaga javobgar edi.

Oyning oxirgi kuni, tungi smena yakunlanayotganida, unga ishlab chiqarilayotgan armatura sifatsizdek tuyuldi. Kamchilikni tekshirish uchun liniyani to'xtatish kerak edi. Ammo bu rejaning bajarilmay qolishi, tekshiruvlar, savol-javoblar degani edi. Qolaversa, Behruz uyga shoshayotgan edi.

"Farq juda kichik, baribir qurilishda bilinmaydi", degan xayol bilan u ishni to'xtatmadi. Mas'uliyatni his etmadi. Smena oylik rejani bajardi. Hamma qatori u ham mukofot pullarini oldi. Boshqa mas'ullar ham vaqtida bu xatoni ko'rmay qolishdi.

Biroq vaqt o'tib, katta qurilish obyektida aynan shu armatura bilan mustah-

kamlangan beton zinapoyalar sinovga chiday olmay singani ma'lum bo'ldi. Partiya qayta tekshirildi. Kamchilik ham, aybdor ham aniqlandi.

Yaxshiyamki, armaturalarning katta qismi

hali qurilishda ishlatilmagan edi. Aks holda, ular yukga chiday olmas, sinib yoki qiyshayib ketishi mumkin edi.

Bosh aybdor sifatida Behruz jazoga tortildi.

U olgan mukofot pullaridan ancha ko'p miqdorda jarima ham to'ladi.

– Bilinmaydigan kamchilik eng xavfli deganlari rost ekan, – dedi u. – Armatura zinaga, devorga, beton ichiga ketadi. Lekin yolg'on va mas'uliyatsizlik hech qachon ularning ichida qolmas ekan.

Kichik deb qaralgan kamchilik katta fojialarga sabab bo'lishi mumkin. Vaqtinchalik manfaat, shoshilish yoki reja orttirish deb haqiqatni ko'zdan qochirish oxir-oqibat javobgarlik va pushaymonlikka olib keladi. Har qanday ishda halollik va mas'uliyat eng mustahkam poydevordir.

Ilhom MAMATOV.



DONOLAR BISOTIDAN

O'tmishni o'zgartirolmaysan, ammo kelajak hali qo'lingdadir.

Hay UAYT.

Ba'zilar borgan har joyida baxt yaratadi. Ba'zilar esa ketganlaridan keyin.

Oskar UAYLD.

Boshqalarning xatolarini emas, balki avval o'z nuqsonlaringizni tuzating.

DEMOKRIT.

SO'RAGAN EDINGIZ

SHARTNOMA QONUNGA XILOF O'ZGARTIRILSA NIMA QILISH KERAK?

Ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini uning roziligi yoki qonun talablariga zid ravishda o'zgartirsa, xodim qanday huquqlarga ega?

A. Zokirov.

- Mehnat kodeksining 150-moddasiga ko'ra, mehnat shartnomasi qonunga xilof ravishda o'zgartirilgan deb hisoblovchi xodim bu holat yuzasidan shikoyat qilish huquqiga ega. Agar mehnat sharoitlari qonunga zid ravishda o'zgartirilgan bo'lsa, xodimning avvalgi mehnat sharoitlarini tiklash to'g'risidagi talabi qanoatlantirilishi shart.

Agar mehnat shartnomasidagi bunday qonunga xilof o'zgarishlar natijasida xodimning ish haqi kamaygan bo'lsa, unga yetkazilgan moddiy zarar ish beruvchi tomonidan qoplanishi lozim.

Xodim boshqa ishga qonunga xilof

ravishda o'tkazilgan taqdirda, u avvalgi ishiga tiklanish va majburiy progul vaqti uchun haq to'lanishini talab qilish huquqiga ega. Agar xodim qonunga xilof o'tkazilgan ishni bajargan, lekin u yerdagi ish haqi avvalgi ishiga nisbatan kam bo'lsa, unga ish haqidagi farq miqdori qoplab berilishi kerak.

Shuningdek, mehnat shartnomasida belgilangan ish joyi xodimning roziligi o'zgartirilgan bo'lsa, hatto mehnat vazifasi va ish haqi saqlab qolingani taqdirda ham, xodimning avvalgi ish joyini tiklash haqidagi talabi qonuniy hisoblanadi.

Agar mehnat shartnomasining qonunga xilof o'zgartirilishi natijasida xodimga ma'naviy yoki jismoniy azob yetkazilgan bo'lsa, u ma'naviy ziyon uchun kompensatsiya talab qilish huquqiga ham ega.

Inomjon ESHONQULOV,
huquqshunos.

Qishdan bahorga o'tish davrida ob-havo tez o'zgarishi, kunduz-tun harorati farqi va immunitetning susayishi sabab gripp va shamollash kasalliklari ko'payishi kuzatiladi. Ushbu kasalliklar ko'pincha bir-biriga o'xshash belgilari bilan namoyon bo'lsa-da, kelib chiqishi va kechishi jihatidan farq qiladi.

SALOMATLIKNI ASRASH
HAR BIR INSONNING O'Z QO'LIDA

Gripp viruslar keltirib chiqaradigan o'ta yuqumli kasallik bo'lib, asosan havo-tomchi yo'li orqali yuqadi. Bemor yo'talganda, aksirganda yoki gapirganda virus havoga tarqalib, sog'lom inson organizmiga nafas orqali kiradi.

muhim ahamiyatga ega.

Kasallik alomatlari paydo bo'lishi bilan bemor uyda qolib, yotoq rejimiga amal qilishi, ko'p suyuqlik ichishi lozim.

Dori vositalarini esa faqat shifokor tavsiyasiga ko'ra qabul qilish kerak.

MUTAXASSIS TAVSIYALARI

Shamollash esa ko'pincha sovuqqa chalinish, nam kiyimda yurish yoki immunitetning pasayishi natijasida kelib chiqadi.

Grippda tana harorati keskin ko'tarilib, bosh va mushaklarda og'riq, holsizlik, quruq yo'tal, tomoq og'rig'i, burun oqishi kabi belgilar kuzatiladi. Shamollashda esa kasallik nisbatan yengil kechib, burun bitishi, aksirish, yengil isitma va tomoq qichishishi bilan namoyon bo'ladi.

Immuniteti kuchli insonlarda bu kasalliklar yengil o'tadi. Shu bois sog'lom turmush tarziga amal qilish, vitaminlarga boy ovqatlar iste'mol qilish, jismoniy faol bo'lish va dam olish tartibiga rioya etish

Gripp va shamollashning oldini olish uchun xonalarni tez-tez shamollatish, qo'llarni toza tutish, ommaviy joylarda niqob taqish, kasal insonlar bilan muloqotni cheklash lozim.

Qadrli metallurglar!

Gripp va shamollashni yengil qabul qilish katta xato ekanligini unutmang! Bu kasalliklar o'z vaqtida davolanmasa, bronxit, o'pka yallig'lanishi, sinusit, otit, yurak-qon tomir va asab tizimi bilan bog'liq asoratlarga olib kelishi mumkin.

Salomatlikni asrash har bir insonning o'z qo'lida!

Olimjon HAMROQULOV,
Bekobod shahar Sanepid-
bo'limi epidemiolog vrach
yordamchisi.



MUASSIS:
O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta elektron variantda
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora AXMEDOVA.

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.